



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICHI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor
F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

TURSUNBOY ADASHBOYEV SHE'RIYATIDA LOF JANRI: XALQ OG'ZAKI IJODINING ZAMONAVIY IFODASI

Qobilova Aziza Ahrorovna,

BuxDTU Akademik litseyi o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada T.Adashboyev ijodidagi “Lofchilar – aldoqchilar” va “G‘aroyibkent hangomalari” she‘rlari asosida bolalar she‘riyatida lof janrining ifodalanish usullari, uning xalq og‘zaki ijodiga bog‘liqligi hamda zamonaviy badiiy tafakkurdagi o‘rni tahlil qilingan. Lofning bolalar tasavvurini shakllantirishdagi ahamiyati, g‘ayritabiiylik orqali qiziqish uyg‘otish vositasi sifatidagi funksiyasi ochib beriladi. T.Adashboyev lirik qahramonlari orqali hayot dunyosini kengaytirib, o‘quvchini badiiy-estetik zavq bag‘ishlovchi g‘aroyib sarguzashtlar olamiga yetaklaydi.

Kalit so‘zlar: T. Adashboyev, lof janri, bolalar she‘riyati, xalq og‘zaki ijodi, g‘ayritabiiylik, parodiya, lirik qahramon, tasavvur, badiiylik, kulgi, mubolag‘a.

Xalq og‘zaki ijodi asrlar davomida o‘ziga xos janrlar, obrazlar, badiiy ifodalar orqali avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan bebaho merosdir. Shulardan biri – lof janri bo‘lib, u ko‘pincha mubolag‘ali, g‘ayritabiiy voqea-hodisalarni o‘z ichiga olgan, kinoya va hazil aralash shaklda hikoya qilinadigan so‘z san‘atidir. Bu janr ayniqsa bolalar ijodida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Bolalar shoirlarining ijodida lof janri nafaqat qiziqarli o‘yin tarzida, balki tasavvurni kengaytiruvchi estetik vosita sifatida ham qo‘llaniladi.

H.Imonberdiyevning xalq og‘zaki ijodidagi lof janri an‘analari asosida yaratilgan “Lofchilar – aldoqchilar” va “G‘aroyibkent hangomalari” she‘rlarini tahlil qilgan R.Barakayev: “Ushbu satrlarni o‘qishingiz bilan o‘z yoshligingiz ko‘z oldingizda “yarq” etib namoyon bo‘lishi turgan gap. Chunki deyarli har bir yosh bola aslida ana shunday ozgina lofchiroq, ozgina aldoqchiroq, ozgina vahimachiroq bo‘ladi. Shu bois ham yosh bolaning beg‘ubor nigohi oddiygina tol chiviqdan chopqir duldul ot, oyoq botmas ko‘lmakdan bepoyon ummon yaratadi va, aslida, olamshumul kashfiyotlar ham ana shu beg‘ubor nigoh mahsulidir. Shu sababli bu loflar-yolg‘onlar ham kitobxonga zarracha malol kelmaydigan, bolakaylarning had-hudud bilmas xayolot olami bilan oshno qiladigan g‘aroyib topilmalar sifatida sizni beixtiyor ishontiradi, o‘sha oppoq qog‘ozda hozirgina don yeb yurgan qushchaning oyoq izlarini ko‘rasiz”, – deydi.

Xalq og‘zaki ijodining lof janri o‘ziga xos turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Bu haqda ishimizning dastlabki fasllarida Anvar Obidjonning lofdan foydalanish mahorati munosabati bilan qisman to‘xtab o‘tilgan edi.

Lofning janriy xususiyatlari, asosan, xalq og‘zaki ijodi misolida keng o‘rganilgan. Ammo keyinchalik, lofning yozma adabiyotga ko‘chishi, she‘riyat yoki nasriy asarlardagi qahramonlar nutqida uchrashidan xabardormiz. Bolalar she‘riyatidagi loflarning tabiati ham yuqoridagi tasnifga xos. Faqat, bundagi dramatiklik lirik ifodaga singishib ketgan. Ya‘ni lirik qahramon nutqidagi loflar sujetli, mubolag‘ali tafsilotlarga boy. Dramatik lofda tomoshabin, yoki ikkinchi lofchi lofni qizdirsa, bir-biridan ustun kelish uchun bahslashsa, she‘riy loflarda lirik qahramonning o‘zi monologik ifodaga ko‘ra loflarni qatorlashtirib tashlaydi. Ya‘ni o‘zi aytgan dastlabki fikrga, keyingi misrada undan ham o‘tib tushuvchi mubolag‘ali voqelarni bayon qiladi. Bunda yosh kitobxon, garchi xayolan bo‘lsa-da, o‘sha manzarani ko‘z oldiga gavdalantirib, hayratga tushadi. Shu ma’noda, har bir bolalar shoiri ijodida lofning o‘ziga xos ko‘rinishlari yuzaga kelgan. Ya‘ni G‘afur G‘ulom loflarida bir echkidan besh qo‘zi olingani, paxta chaman ochilganda, olachipor tovug‘i terishga ko‘maklashgani lof qilingan bo‘lsa, Anvar Obidjon qahramonlari sakkiz ko‘zli alvasti bilan gaplashadi. T.Adashboyevning Latifjoni esa ulardan o‘tib, yanada g‘ayritabiiy sarguzashtlar bilan kitobxonni qiziqtirib qo‘yadi. Binobarin,

shoirning loflarga asoslangan she'rlari ham alohida turkum sifatida e'tirofga loyiq. Turkum quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Orzu xayol – uchqur tulpor,
Ayting, qanday kishanlaysiz?!
Lof azaldan bizga yo'ldosh,
Goh ishonib, ishonmaysiz...

Haqiqatan, shoirning "Ovning gashti", "Barchasi yodimda", "Poyga zavqi", "Beshta sanoch", "Shirmon kulcha", "Yugan solib, egar urib", "Bu dunyoning ishlari", "Ko'zin ochsa", "Uyin topmay" singari she'rlari xayolotning bepoyon olamiga sayohatlardan tashkil topgan. Shoirning bu turkumdagi she'rlaridan ba'zilar Latifjon nomidan hikoya qilinsa, ba'zilarida lirik qahramon lofchi bola ekanligi ayonlashadi. Har ikki holatda ham yosh qahramonning g'ayritabiiy sarguzashtlari bolalarni qiziqtirib qo'yadi. Aytaylik, "Barchasi yodimda" she'rida hali tug'ilmagan chaqaloq bobosining yilqisini boqadi. Yo'qolib qolgan to'riq baytalni bog'dan, tog'dan, xullas, hamma yoqdan qidiradi. U paytlarda Oy ham yotmas, Quyosh esa sira botmas, bulut bo'lmasa ham do'l yog'ar ekan, buvisi qisir echkini sog'ar ekan. Nihoyat, hali dunyoga kelmagan lofchi baytalini O'zgandan topadi:

Oynako'lning shundoq yonida,
Juman uloqchining tomida,
Qulunlab yotibdi, qaranglar,
Toychoq meni tanib, alanglar.

Latifboy ularni tomdan olib tushib, baytalga qulunni ortib, o'zi ham minib, "chuh", deb qamchini tortsa, baytal ularni ko'tarib turolmabdi ham, yurolmabdi ham. Voqea qanchalik g'ayritabiiy boshlangan bo'lsa, shunchalik g'ayritabiiy tugaydi:

So'ngra, otni toyga o'ngarib,
Egarini bog'lab-to'ngarib,
Qamchi ursam, qanoti borday,
Qulun chopib ketdi shunqorday.

Bolalar she'riyatidagi lof bolaning uchqur hayoli, hali aqli, bilimi yetmagan ko'p narsalar haqidagi o'z tasavvurida kechgan hodisalarning bir manzarasi deyish mumkin. Chunki, kichiktoy bolalar dunyoga kelmagan paytda qayerda bo'lgani, nima ishlar qilganiga juda qiziqadi. Shuningdek, Quyosh va Oyning chiqishi, botishi haqidagi tasavvurlari shunday g'ayritabiiylikka ega. Shoir bola ruhiyatidagi shu manzarani lofdagina ko'rsata olgani seziladi. Shoirning xalq dostonlarida ko'p uchraydigan Oynako'l, to'riq baytal, Juman uloqchi singari joy va nomlardan foydalanishi lofning ishonchliligi ta'minlash xizmat qilgan.

"Ovning gashti" she'rida esa sergak tozisi bilan ovga chiqqan Latifboy o'zi guvoh bo'lgan bundan ham g'aroyib voqealarni hikoya qiladi:

Cho'l bag'rida biqirlab
Buloq qaynab turibdi.
Bitta sichqon qoplonni
G'ajib, chaynab turibdi.
Do'stlar, buni rostmana
Shikor desa bo'ladi.
Sirtlon bilan qashqirning
Oqib ketdi so'lagi.

"Yugan solib, egar urib" she'rida Latifboy chigirtkaning erkagiga yugan solib, egar urib, qamishdan nayza yasab, otquloqdan qalqon qilib ovga chiqadi. She'rdagi Xayri xolaning tovuqlariga qiron keltirgan tulki ovi tasviri ham g'ayritabiiyligi bilan e'tiborni tortadi. Chigirtkani rosa emlab, tolga bog'lab qo'ygan Latifboy peshin chog'i o'lja ilinjida kelgan begemotday tulkini qamishdan yasalgan o'q-yoyidan otib o'ldiradi. Quyrug'i ikki quloch bo'lib ketgan tulkinining tanasini to'rt pahlavon shiladi, mo'ynasidan ko'nchilar o'nta po'stin tikadilar, ikki quloch quyrug'idan qirqta telpak tayyorlaydilar.

Umuman, “lof gaplarga suyagi yo‘q” Latifboyning sarguzashtlari rang-barang sujetlarda ko‘zga tashlanadi. “Beshta sanoch” she‘rida u bo‘rdoqiga boqqan beshta chivinni guzardagi qassoblarni ishga solib so‘ydiradi, qo‘radagi bir chivinni jo‘ralaridan ajratib olib chiqquncha ikki qassob qora terga tushadi, so‘yilgan chivinning terisidan beshta sanoch (qimiz solinadigan idish) chiqadi.

“Poyga zavqi” she‘rida esa burgani taqalatib, oq qand berib ovutgan, arpa berib boqqan, yo‘rg‘alashga o‘rgatgan Latifboy poygada barcha tulporlarni ortda qoldirib, marraga birinchi bo‘lib yetib keladi.

Ko‘rinadiki, loflardagi uydirmalar qanchalik g‘ayritabiiy bo‘lmasin, qiziqarli va kulgili detallarga boy. Nomuvofiqlik esa ko‘p. Chigirtkaning erkagini, Burgani taqalash, bo‘rdoqiga boqilgan chivin, xo‘rozning tulkini minib yurishi, Olahakka Timsohni bog‘lab do‘koniga bozordan yong‘oq tashigani, Chigirtkaning Toshbaqaga egar urib, kechki ovqatga shoshib ketishi, Kobraning Chuvalchangdan seskanib qochishi va hokazolar aynan nomuvofiqlik asosida qurilgani uchun ham katta-yu kichikda kulgi uyg‘otadi. Aniqrog‘i, lofning muhim xususiyati ham aslida voqelikning g‘ayritabiiyligi darajasi bilan o‘sovchandir. Binobarin, T.Adashboyev loflari g‘ayritabiiylik asosiga qurilgan. Undagi kulgining kuchi, tezligi ham shunga yarasha baland deyish mumkin.

Shoir ijodiy olamini monografik tadqiq etgan B.Ashurov shunday yozadi: “Latifjonning loflari” she‘ridagi ignaga ip o‘tkazuvchi asbob o‘ylab topib, buvisining ishini osonlashtish, odamlar ko‘tarishga qiynalmasligi uchun tutqi-sopli yangi tarvuz navini yaratish, bilimni oshirib, guruchning kurmag-u toshini teradigan magnit kashf qilish singari ulug‘vor orzu-niyatlar bilan yashayotgan, garchi bolalar lofchi deb ustidan kulsalar-da, “loflarida ancha-muncha asos bor” Latifjon ham Nodir va Nosir singari o‘ychan, fikrlovchi bolalar timsolidir.

Binobarin, T.Adashboyev bolalar she‘riyatida lof janrining ana shunday yangi namunalari bilan boyishiga katta hissa qo‘shdi. Uning she‘riyatidagi loflar, avvalo, yumoristik ifodaga boyligi jihatidan, qolaversa, bolalarning uchqur xayolini yanada balandlatish, kengroq tasavvur va tafakkurga ega bo‘lishga undash, yangi so‘z va lug‘at boyliklariga ega bo‘lish, o‘z yurtida, hayotida deyarli uchramaydigan jonivorlar, hayvonlar bilan yuzma-yuz kelishi bilan ham yuksak badiiy-estetik vazifani bajaradi. Loflardagi bolalik olami esa har bir kichikintoyning orzusi misol jilvalanib turadi. T.Adashboyevning bu yo‘nalishdagi barakali ijldi shu ma‘noda bejiz emasligi ayonlashadi.

“Parodiya muayyan asarga berilgan hazil baho yoki baholarning hazilidir”, – deb yozadi adabiyotshunoslar R.Barakayev va B.Ashurov. Bu o‘rinda T.Adashboyevning o‘z fikrlari bor. Shoir Mirtemir domlani “Xo‘rsiniq” she‘rini esga oladi: Mirtemir domla bu she‘rni 1973-yili yozgan ekan. Bu paytda u kishining oldiga tushadigan shoir yo‘q edi. Atrofida shogirdlari bisyor, obro‘-e‘tiborli shoir. Ammo domla:

Taqdirimga hech ham o‘pka qilmayman,
Qo‘limdan kelmaydi degan pasha kam.
Ba‘zan ko‘zlarimda tomchi-tomchi nam...
Hanuz she‘r yozishni bilmayman.

Men esa hanuz hayronman. Mirtemir she‘r yozishni bilmasa, kim bilar ekan?!” – deb ta‘kidlaydi shoir. Va zamondosh shoirlardan birining:

She‘r yozmagan tunim yo‘q,
She‘r aytmagan kunim yo‘q, –

degan misrasiga javoban, “Har kuni she‘r yozib bo‘ladimi, axir? Yozilgan taqdirda ham, qanday she‘r bo‘ladi u!?” – deb shu she‘rni yozgan do‘stiga shunday parodiya yozadi:

Ustoz G‘afur G‘ulom ham
Yozmagandir har kuni.
Eslang Asqad Muxtorni
Yoki Rauf Parfini.

Darhaqiqat, iste'dodli shoir parodiya yozish uchun she'r qidirib o'tirmaydi. She'riy misraning to'qligi, mazmunan teranligi, badiiy yuksak salohiyati parodiya uchun obyekt bo'lolmaydi, albatta. Ammo o'z kamchiliklarini she'r vositasida ko'rsatib, so'zni o'rinli ishlatishga xayrixohlik bildirish ham yumor vositasida beg'araz tuyuladi, ko'ngilga qattiq tegmaydi.

Bir shoiraning:

Men ko'prikning o'rtasida
Qotib turgan serkaman.
Yo'lim bo'shat, erka bo'lsang,
Men ham sendek erkaman.

deyilgan satrlariga shoirning javob parodiyasi quyidagicha ekan:

Olmaxonning o'rischasi
"Belka" bo'ladi.
Kurakning sal teparog'i
Yelka bo'ladi.
Farzandlarning kenjatoyi
Erka bo'ladi.
Hayvonlarning hayvonlardan
Farqi bor, singlim!
Taka zotin axta qilsa,
Serka bo'ladi...

So'zning ma'nosini tushunmay ko'r-ko'rona qo'llash katta-yu kichik orasida avj olib ketgani rost. Shoir parodiyasi qo'lga qalam olib she'r yozishga tutingan shu kabi chala mullalarni hajv qilishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, T.Adashboyev ijodida lof janrining bolalar she'riyati uchun qanchalik dolzarb va zarur janr ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning lofga asoslangan she'rlari bolalar dunyoqarashini boyitadi, ularni g'ayritabiiylik orqali fikrlashga, orzu qilishga, o'ylab topishga undaydi. Ayniqsa, Latifboy obrazining serqirra va qiziqarli sarguzashtlari bolalarning hayotga, tabiatga, ijtimoiy voqealarga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shoirning parodiya va lofga asoslangan ijodi esa zamonaviy bolalar adabiyotini yangi badiiy ifodalar bilan boyitishga xizmat qilmoqda. T.Adashboyev ijodi xalq og'zaki ijodining an'anaviy shakllarini saqlagan holda, ularni zamonaviy bolalar ruhiyatiga moslashtirgan holda qayta talqin qilishining yorqin namunasi hisoblanadi. Shunday qilib, u bolalar she'riyatida lof janrini badiiy-estetik, tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi vosita sifatida muvaffaqiyatli qo'llagan ijodkordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Barakayev R. Lofchilarning bolaligi // Gulxan. – Toshkent, 2018. – №2. – B. 28–30.
2. Ashurov B. Tohir Adashboyev ijodi poetikasi: monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 176 b.
3. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. 3-jildlik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
4. Obidjon A. Hazil va hangoma – bolalarning do'sti // Yoshlik. – Toshkent, 1995. – №6. – B. 33–36.
5. Imonberdiyev H. G'aroyibkent hangomalari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2001. – 64 b.
6. Adashboyev T. Lofchilar – Aldoqchilar. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2017. – 48 b.
7. Karimov A. Xalq og'zaki ijodi: O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005. – 256 b.
8. Yo'ldoshev H. Badiiy tafakkur va xalq ijodi. – Toshkent: Fan, 1996. – 212 b.
9. Qodirov M. Badiiy asarda obraz va ifoda vositalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – 184 b.